



XALQ DEPUTATLARI DANG‘ARA TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 25-yanvar

VII-4-4-11-155-K/25

Dang‘ara tumani

Dang‘ara tumani Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i, 3-sektor rahbari Yo.Abduorasulovning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash borasida 2024-yil 4-choragi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-avgustdagi “Hududlarning jadal ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashga doir ustuvor chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3182-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-yanvardagi “Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4102-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i, 3-sektor rahbari Yo.Abduorasulovning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash borasida 2024-yil 4-choragi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobotini tinglab, bildirilgan fikr mulohazalardan kelib chiqib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Dang‘ara tumani Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i, 3-sektor rahbari Yo.Abduorasulovning hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilash borasida 2024-yil 4-choragi davomida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Tuman Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i, 3-sektor rahbari (Yo.Abduorasulov)ga:
 - “Yo‘l xaritasida” belgilab qo‘yilgan vazifalar ijrosini o‘z muddatlarida sifatli amalga oshirilishini ta’minlash;
 - sektor hududidagi ijtimoiy soha ob‘yektlari, eng avvalo, sog‘liqni saqlash, ta’lim va boshqa muassasalarning samarali faoliyat ko‘rsatishini ta’minlash bo‘yicha ta’sirchan chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda joylarda zamonaviy bozor infratuzilmasini tashkil etish, maishiy xizmat ko‘rsatish, turizm sohalarini rivojlantirish, tadbirkorlik sub‘yektlariga amaliy yordam ko‘rsatish, bularning natijasida yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari”ga kiritilgan mehnatga layoqatli fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, doimiy ishga joylashtirish orqali ro‘yxatdan chiqarish;

- hududni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha manzilli dasturlar ijrosi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish;

- faoliyatini to‘liq yoki qisman to‘xtatgan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tiklash va ularni qo‘llab-quvvatlash maqsadida ularga bevosita yordam ko‘rsatish; - har oyda sektorda amalga oshirilgan ishlarni tizimli tahlilini olib borish, aniqlangan muammolar va ularni xal etish natijalari yuzasidan axborotlar tayyorlab borish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi matbuot xizmati (U.Usmonov)ga aholi bandligini ta’minlash va daromadini keskin kamayishining oldini olish, muhtoj oilalarni moddiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (R.Akramov) hamda xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (D.Dadamirzayev) zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



TOJIXAKIMOV
SHUXRATJON
NURMUXAMMADOVICH